

# O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MUSTAQILLIGINING 30 YILLIGI MUNOSABATI BILAN BANDIXON TUMAN HOKIMI O'TKIR CHORIYEV ABDUZOIROVICHNING BANDIXON TUMAN XALQIGA TABRIKNOMASI !

Assalomu - alaykum aziz yurtdoshlar qadri Bandixonliklar!

Avvalo sizlarni Davlatimiz mustaqilligining o'ttiz yilligi bilan samimiy tabriklayman! Oilangizga tinchlik , qut baraka va osoyishtalik tilayman!

Bugungi kunda yurtimizda tinchlik va barqarorlikni mustahkamlash, inson huquqlari, erkinliklari va manfaatlarini ta'minlash, Vatanimizni har tomonlama taraqqiy ettirish, uning xalqaro maydondagi obro'-e'tiborini yuksaltirish borasida keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Biz uchun ustuvor ahamiyatga ega bo'lgan vazifalar - aholining turmush darajasini yaxshilash, tadbirkorlik va xususiy mulk rivojiga keng imkoniyat ochib berish, yoshlar, xotin-qizlar, keksa avlod vakillari, ijtimoiy himoyaga muhtoj insonlarga doimiy e'tibor va g'amxo'rlik ko'rsatishga qaratilgan dasturlarimizning ijobiy natijalari nafaqat mamlakatimiz, balki xalqaro jamoatchilik tomonidan ham e'tirof etilmoqda.

Xalqimiz uchun eng ulug', eng aziz ayyom, erkin, obod va farovon hayot qurish yo'lidagi barcha yutuq va muvaffaqiyatlarimizning asosiy manbai bo'lgan Vatanimiz mustaqilligining o'ttiz yilliginigini tumanimiz aholisi ko'tarinki kayfiyatda kutib olmoqda.

Fursatdan foydalanib yana bir bora siz aziz yurtdoshlarni hamda Bandixonliklarni bugungi unitilmas bayram bilan chin qalbimdan tabriklayman.Yurtimiz doimo tinch osmonimiz esa musaffo bo'lsin! "

**Bandixon tuman Hokimi**

**O'tkir Choriyev Abduzoirovich**